

**QADIMGI RIM ME'MORCHILIGI: TARIX VA SAN'AT UYG'UNLIGI****Omonova Madinabonu O'tkir qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 301-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola qadimgi Rim me'morchiligini ko'p qirrali hodisa sifatida tadqiq etadi. Etrusk, yunon va Sharq xalqlari qurilish an'alaridan ilhom olgan holda o'ziga xos tizim yaratgan Rim me'morchiligi insoniyat tarixida muhandislik va badiiy tafakkurning noyob uyg'unligi sifatida alohida o'rin tutadi. Beton texnologiyasining kashf etilishi, arka va gumbaz tizimlarining keng joriy qilinishi hamda shahar infratuzilmasining bosqichma-bosqich takomillashuvi maqolada ilmiy tahlil qilinadi. Kolizey, Panteon va akveduklar kabi ulkan inshootlar imperiya qudratining ramzi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot shuningdek Rim me'morchiligining zamonaviy qurilish san'atiga ko'rsatgan uzoq muddatli ta'sirini ham yoritadi.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена изучению архитектуры Древнего Рима как уникального явления в истории мировой цивилизации. Вобрав опыт этрусков, греков и народов Востока, римские зодчие создали неповторимую самобытную систему. Рассматриваются изобретение бетона, система арок и куполов, развитие городской инфраструктуры, а также крупнейшие памятники — Колизей, Пантеон и колонна Траяна. Анализируется долгосрочное влияние римской архитектуры на последующие эпохи и современное зодчество.*

**Abstract:** *This article examines the architecture of Ancient Rome as a multifaceted phenomenon in the history of human civilization. Drawing on the traditions of the Etruscans, Greeks, and Eastern peoples, Roman builders developed a uniquely original system that marked a turning point in the history of engineering. The study analyzes the technical foundations of Roman construction: the invention of concrete, the widespread use of the arch and vault system, and the development of urban infrastructure. Key monuments including the Colosseum, the Pantheon, and the Column of Trajan are explored as expressions of imperial power and engineering mastery. The article also addresses the long-term influence of Roman architecture on subsequent eras and on modern construction practice.*

**Kirish**

Tarix sahifalarida ko'plab sivilizatsiyalar o'z izini qoldirgan, biroq Rim kabi tosh va ohak orqali abadiyatga da'o qilgan davlat kam uchraydi. Rim me'morchiligi shunchaki binolar majmuasi emas — u bir xalqning dunyoqarashi, davlat tuzumi va estetik ideallarining toshga muhrlangan ifodasidir. Beton texnologiyasi va arka tizimining kashf etilishi bu sohada haqiqiy burilish nuqtasi bo'lib xizmat qildi: yangi konstruktiv

yechimlar orqali inshootlar ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan o'lchamlarga erishdi. Ushbu maqolada Rim me'morchiligining texnik asoslari, shahar muhitining shakllanish tarixi va eng muhim me'moriy yodgorliklar tahlil qilinadi — muhandislik hisob-kitobining badiiy did bilan qanday uyg'unlashgani ko'rsatib beriladi.

Rimliklar uchun qurilish hech qachon faqat amaliy ehtiyojni qondirish vositasi bo'lmagan. Har bir bino, har bir yo'l, har bir suv quvuri o'zida imperiya irodasining aksini ko'targan. Kolizeyning ulkan gumbazlaridan tortib akveduklarning cho'zilgan kamonlarigacha — barchasida insoniyatning tabiat va vaqt ustidan qozongan g'alabasi mujassam. Ushbu maqola o'sha g'alabaning sirlarini tadqiq etadi.

### **Asosiy qism**

Qadimgi Rim davlati eramizdan avvalgi VIII asrda Apennin yarimorolidagi bir necha tepalik qishloqlarining birlashuvidan vujudga keldi. Boshlang'ich bosqichda qurilish sodda xom materiallardan iborat edi, biroq asta-sekin yunon va etrusk ustalarining tajribasini o'lashtirib olgan Rim me'morlari o'ziga xos yechimlarni ishlab chiqdi. Mesopotamiya qurilish an'alaridan olingan arka tizimi keyinchalik Rimning asosiy qurilish tamoyiliga aylandi: kalon tarzida ishlangan bu konstruksiya og'ir inshootlarning yukini bir tekis taqsimlash imkonini berdi. Eramizdan avvalgi II asrda vulqon kuli, ohaktosh va suvdan tayyorlangan beton ixtiro qilindi. Qotib bo'lgan bu aralashma toshday qattiq bo'lib, gumbazli shiftlar qurilishini mumkin qildi. Imperator Avgust o'z hukmronligi davrida "lay" Rim marmar shaharga aylantirilganini faxr bilan aytgan.

Imperator Vespasian hukmronligi davrida qurilgan ulkan amfiteatr Rim me'morchiligining eng mashhur namunasiga aylandi. Trayan o'z harbiy yurishlarini xotirlash uchun shahar markazida baland yodgorlik ustuni o'rnatdi. Hadrian imperatorligi davridan saqlanib qolgan Tivoli vilasi va Britaniyaning shimolida barpo etilgan mudofaa inshooti Rim me'morlarining qanchalik keng geografik ko'lamda ish olib borganini ko'rsatadi. Etrusk hunarmandlaridan o'zlashtirilgan qurilish usullari Rim me'morchiligini boyitdi. Eramizdan avvalgi 312-yilda Senzor Appiy Klavdiy Tseke davrida rimliklar ilk bor tosh to'shalgan "Appiy arklari" qurildi. Eramizdan avvalgi 55-yilda Mars maydonida toshdan qurilgan birinchi amfiteatr "Pompeya" qurildi.

Dastlabki Rim uylarining ko'rinishi juda oddiy bo'lib, xom g'isht devorlari va poxoldan yasalgan tomlari bor edi. Keyinchalik pishiq g'ishtdan qurilgan ibodatxonalar, jamoat binolari va nufuzli fuqarolarning uylari travertin tosh bilan qoplana boshladi. Eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida yunon me'morchiligidan ta'sirlanib hashamatli turar joy qurilishi keng yo'lga qo'yildi. Dastlabki Rim ko'chalari tartibsiz, egri-bugri va aksariyat hollarda tosh yotqizilmagan bo'lgan. Keyinchalik uch qatlamdan iborat yo'l tizimi joriy etildi: pastki mustahkam poydevor — tosh yoki zichlab urilgan tuproqdan, o'rta qatlam — mayda shag'al yoki qumdan, yuqori sirt qatlami esa ohak aralashgan g'oladan iborat bo'lgan. Fon Xagen ta'kidlashicha Rimliklarda 2000 dan ortiq tosh ko'priklar bor deb hisoblaydi. Tuzilishi bo'yicha ko'priklarga yaqin bo'lgan akveduklarga

katta ahamiyat berilgan,ular orqali Rimliklarga uzoq kilometrdan shahrlariga suv keltirilgan.Eramizdan avvalgi 142-yilda Tibr daryosi orqali birinchi tosh ko'priq qurilgan.Rimda 9 ta yoki 10 ta ko'priq bo'lib,ulardan oltitasi qayta qurilib shu kungacha saqlanib kelinmoqda.Mazkur fikrlar taniqli amerikalik sayyoh,antropolog,tarixchi va tabiatshunos olim Fon Xagenga tegishli hisoblanadi.Rim ko'priklari va akveduklari uchun arxitekturasi inshootning monumentliligidir,u imperiyaning yuksakligini va boyligini ifodalaydi.

Rim me'morchiligining tarixchilar tomonidan "Oltin davr" deb atalgan cho'qqisi eramizdan avvalgi 27-yildan milodiy 14-yilgacha davom etgan Oktavian Avgust hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda nazariyotchi me'mor Vitruviy,tarixchi Tit Liviy va shunga o'xshash olimlar ijod qilishgan.Tarixchilar bu davrning qurilishini ta'riflab, „Avgust Rimni g'ishtdan qurilgan holda qabul qilib, uni marmarda qoldirdi"deb ta'riflashgan. Aynan shu davrda ulug'vor inshootlar, naqshli ustunlar hamda gumbazli va arkli me'moriy shakllar shaharga yangi go'zallik bag'ishladi. Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri "Kolizey" amfiteatridir. Kolizey (lotincha Colosseum so'zidan olingan) Rimdagi va butun qadimgi dunyodagi eng katta amfiteatridir. Bu amfiteatr sirk tomoshalari uchun mo'ljallangan edi. Uning qurilishi Flaviya imperatorlari davrida amalga oshirilgan, shuning uchun ham u milodiy 80-yilda qurib bitkazilgandan so'ng, uning ochilish marosimida unga "Flaviya amfiteatri" nomi berilgan. Ushbu voqea sharafiga tomoshalar 100 kun davom etgan. Amfiteatrlarda 40 metrli Gelios (ilgari Neron) haykali o'rnatilgan, bu binoning ulkan o'lchamlari bilan birgalikda barchani ulug'vorligi jihatdan hayratga solgan. Kolizeyning rejasi ellips shaklida bo'lib, uning aylanasi 524 metr, uzunligi 188 metr va asosiy o'qi 154 metrni tashkil etadi. Amfiteatr taxminan 50 ming tomoshabinni o'z ichiga sig'dira oladi. Zinapoyalarning murakkab tizimi esa tez kirish va chiqishni ta'minlaydi. O'tirish maydoni 4 qavatda joylashgan bo'lib, devorning umumiy balandligi 48,5 metrni tashkil etadi. Ustunli ustun bilan bezatilgan yuqori qavatda soyabonni ko'tarish uchun 240 ta ustun joylashgan edi. Bunday ishlarni faqat dengizchilar bajara olgan. Shu sababli Kolizeyda doimiy ravishda Rim dengizchilarining to'liq ekipaji joylashgan edi. Arena ostida tosh bilan qoplangan yo'laklar, hayvonlar qafaslari va rekvizitlar uchun omborxonalar bor edi. Amfiteatr sirk tomoshalari uchun qurilgan, ammo sport musobaqalari va yovvoyi hayvonlarni o'lja qilishlari uchun ham ishlatilgan. Bir necha asrlar davomida, 406-yilga qadar Kolizeyda gladiatorlar janglari bo'lib o'tgan.ko'rsatgan.Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri "Kolizey" amfiteatridir.Kolizey (lotincha Colosseum so'zidan olingan) Rimdagi va butun qadimgi dunyodagi eng katta amfiteatridir.Bu amfiteatr sirk tomoshalari uchun mo'ljallangan edi.Uning qurilishi Flaviya imperatorlari davrida amalga oshirilgan,shuning uchun ham u milodiy 80-yilda qurib bitkazilgandan so'ng, uning ochilish marosimida unga "Flaviya amfiteatri"nomi berilgan. Ushbu voqea sharafiga tomoshalar 100 kun davom etgan. Amfiteatrlarda 40 metrli Gelios (ilgari Neron) haykali o'rnatilgan, bu binoning ulkan o'lchamlari bilan birgalikda barchani

ulug'vorligi jihatdan hayratga solgan. Kolizeyning rejasi ellips shaklida bo'lib, uning aylanasi 524 metr, uzunligi 188 metr va asosiy o'qi 154 metrni tashkil etadi. Amfiteatr taxminan 50 ming tomoshabinni o'z ichiga sig'dira oladi. Zinapoyalarning murakkab tizimi esa tez kirish va chiqishni taminlaydi. O'tirish maydoni 4 qavatda joylashgan bo'lib, devorning umumiy balandligi 48,5 metrni tashkil etadi. Ustunli ustun bilan bezatilgan yuqori qavatda soyabonni ko'tarish uchun 240 ta ustun joylashgan edi. Bunday ishlarni faqat dengizchilar bajara olgan. Shu sababli Kolizeyda doimiy ravishda Rim dengizchilarining to'liq ekipaji joylashgan edi. Arena ostida tosh bilan qoplangan yo'laklar, hayvonlar qafaslari va rekvezitlar uchun omborxonalar bor edi. Amfiteatr sirk tomoshalari uchun qurilgan, ammo sport musobaqalari va yovvoyi hayvonlarni o'lja qilishlari uchun ham ishlatishgan. Bir necha asrlar davomida, 406–yilga qadar Kolizeyda gladiatorlar janglari bo'lib o'tgan.

Rim me'morlarining yana bir ulkan yutug'i "barcha xudolar ibodatxonasi" sifatida tanilgan Panteon hisoblanadi. U 118–125 yillar oralig'ida qurilgan bo'lib, Rim novatorlik ruhini to'liq aks ettiradi. Me'morchilikda yangi paydo bo'lib, ahamiyat kasb etgan inshoot turlaridan biri — termalar, ya'ni hashamatli hammom saroylaridir. Iliq va sovuq suvli hovuzlar, badan tarbiya zallari, dam olish xonalari va kutubxonalar joylashgan bu binolarga bezak berishga alohida e'tisot qaratilgan, 2–3 ming tomoshabinga mo'jallangan edi. Respublika davrida Rimning jamoat markazi "Forum" hisoblangan. Bu yerda davlat xazinasi va arxivi (Tabulyarir), notiqalar minbari (Rastra), davlat qamoqxonasi (Tullianium) binolari qurilgan.

Ellinizm davri ta'sirida Rim shahri yunon haykallari va san'at buyumlari bilan tobora boyib bordi. Keyinchalik imperiya davri forum, ibodatxona, bazilika, zafar arklari, yodgorlik ustunlari va otliq haykallar bilan bezatildi. Rimda va boshqa yirik shaharlarda suzish havzalari, badan tarbiya zallari, bog'lar va kutubxonalar barpo etildi; ularning yonida ommaviy hammomlar ham qurildi. Eng hashamatli hammomni imperator Karakalla qurdirgan: uning maydoni 12 gektar bo'lib, bir vaqtda 1600 kishi undan foydalana olgan. Badavlat rimliklarning uylari marmar ustunlar, san'at asarlari, mozaikalar va haykallar bilan bezatilgan, pollar ostidan isitish tizimi o'tkazilgan. Kam ta'minlangan fuqarolar esa ko'p qavatli, ammo qulayliklarsiz, tartibsiz qurilgan uylarda yashagan. Rimda rivojlangan san'atning muhim bir yo'nalishi — portret haykaltaroshlik edi. Agar yunonlar ideal fuqaro timsolini yaratishga intilgan bo'lsa, rimliklar insonning haqiqiy qiyofasi va xarakterini mujassamlashtirgan.

Antoniylar sulolasining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan Trayan hukmronligi davrida Rim davlati yangi taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarildi. Faol tashqi siyosat yuritib, imperiya chegaralarini kengaytirgan bu hukmdor Dakiya podshohligini bo'ysundirdi; g'alaba sharafiga Rimda 123 kun bayram o'tkazildi. Xalqqa mo'l-ko'l o'lja tarqatildi, ajoyib Trayan termalari (hammomlari), yangi suv quvurlari va Trayan kalonnasi bunyod etildi. Rim hammomlari, favvorolari va jamoat hojatxonalari 11 ta katta akvedukdan suv bilan ta'minlangan. Ulardan ba'zilari shahardan 48 km

uzoqlikda joylashgan buloqlardan qurilgan. Suv shahar sathidan yuqorida joylashgan quduqlardan tortishish kuchi bilan oqib kelgan. Suvni chuqur vodiylar orqali o'tkazish uchun tog'larda kemerli akveduklar qurilgan. Tunnellar qazilgan. Varvarlar Rim davridagi ko'plab akveduklarni vayron qilishgan, ammo Ispaniyaning Segoviya shahridagi akveduk bu inshootlar haqida tasavvur beradi. Uning davrida yana yangi suv quvurlari va 30 metrli Trayan kalonnasi bunyod etilgan. Trayan vafotidan so'ng hokimiyatga uning jiyani Publiy Eliy Adrian chiqadi. Adrian amalga oshirgan eng muhim ishlardan biri imperiya chegaralarini mustahkamlash maqsadida chegara istehkomlarini qurganligi edi. Ana shunday istehkomlardan biri "Adrian vali" (istehkomi) Britaniyada hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Shuningdek Adrian hukmronligi davrida barpo etilgan Rim panteoni barcha rim xudolariga bag'ishlangan bo'lib, bugungi kungacha saqlanib qolgan. Uning ulkan gumbazli tomi osmon gumbazini, markazidagi dumaloq teshik esa quyoshni ramziy ma'nosida ifodalaydi. Bu ulug'vor inshoot devorlari bo'ylab turli xudolarga qurbonliklar qo'yilgan qurbongohlar joylashgan.

Rimda haykaltaroshlik sohasi ham yuksak darajaga ko'tarildi. So'nggi respublika davri asarlaridan "Orator", "Togatus", "Brut" haykallari, Mariy, Pompey, Sitseron, Kichik Katon va Sezarning byustlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ko'plab imperatorlar, malikalar, amaldorlar, sarkardalar, shoirlar va faylasuflarning marmar byustlari ham bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

Qadimgi Rim me'morchiligi insoniyatning qurilish va badiiy tafakkur tarixida betakror o'rin egallaydi. Rim hukmdorlari yangi hududlarni zabt etibgina qolmay, o'sha o'lkalarda ham o'ziga xos qurilish madaniyatini qaror toptirdi. Shu sabab Rim inshootlarida muhandislik aniqligining san'at nafosati bilan qo'shilgan holda namoyon bo'lishi tasodifiy emas. Bugungi kunga qadar saqlanib qolgan Kolizey, Panteon, akveduklar va mudofaa devorlari nafaqat tarixiy yodgorlik, balki insoniyat intellektining abadiy guvohlari hamdir. Rim imperiyasi qulagan bo'lib, biroq uning me'moriy merosi zamonaviy shaharsozlik va qurilish san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatishda davom etmoqda. Chegara istehkomlarining qoldiqlari bu sivilizatsiyaning buyukligidan dalolat beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.D.J. Urakov, R.N.Tursunov, A.A.Biykuziyev, B.B.Xaynazarov "Jahon tarixi" o'quv qo'llanma. Toshkent; Jahon tarixi o'quv qo'llanma, "Innovatsiya Ziya"-2020.
- 2.R.R.Rajabov, "Qadimgi dunyo tarixi" (SHarq, Yunoniston,Rim), Toshkent – "Fan va texnologiya" – 2009.
- 3.Turapov.Y, "Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati", Uslubiy qo'llanma. Toshkent – "Navroz"- 2013; (56 – bet).
- 4.Канделаки Т. Г. Древний Рим: иллюстрированная энциклопедия / Т. Г. Канделаки. — М.: АСТ: Аванта+, 2011. — 144 с.